O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqia
UDK 336.51

HAKIMOVA NARGIZA ABDUKARIMOVNA

BANK RISKLARINI BAHOLASH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

70410501 – «Bank ishi va auditi» mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Prof. B.Izbosarov

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank ishi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar **Prof. B.B.Izbosarov**

Kafedra mudiri **Prof. M.S.Rustamov**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani **Prof. J.I.Karimqulov**

Men, Hakimova Nargiza Abdukarimovna ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"16" 04 2025 yil Toshkent sh.

"Bank ishi" kafedrasi

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi bo'yicha komissiya majlisining 2025 yil "16" 04, 1 sonli bayonnomasidan

KO'CHIRMA

KUN TARTIBI

Eshitildi:
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Bank ishi va audit" mutaxasisligi magistratura bitiruvchisi Hakimova N.A ning "Bank risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi dissertatsiyasi dastlabki himoyasi muhokamasi.

Qaror qilindi:
Magistrant Hakimova N.A ning "Bank risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi dissertatsiyasi talab darajasida tayyorlangan. Ishchi guruh tomonidan quyidagi kamchiliklar ko'rsatib o'tildi: ishning nazariy qismini ilmiy asoslanganlik darajasini to'liq yoritish, keltirilgan jadval va diagrammalarni raqamlash zarur. Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish asosida himoyaga tavsiya etildi.

"Mazkur Magistrlik dissertatsiyasi himoyaga tavsiya etilsin"

Komissiya a'zolari:
1. U.Dusqobilov
2. I.Toymuxamedov
3. G.Bekmuradova

Kafedra mudiri
i.f.d., DSc prof. Rustamov M.S.

"16" 04 2025 y.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Magistratura va kechki ta'lim fakulteti 70410501 – "Bank ishi va auditi" magistratura mutaxassisligi, 2-kurs magistranti Hakimova Nargiza Abdukarimovnaning "Bank risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishining

ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davrda dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, shuningdek, xalqaro va mahalliy bozorlarda raqobatning keskinlashuvi sharoitida tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarishda qo'llaniladigan mexanizmlarni takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida bank sohasini isloh qilish masalalari muhim ahamiyatga ega.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi sifatida O'zbekistonda bank risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari:

- bank risklarining mazmun-mohiyati, tasnifi, turlari va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- bank risklarini bank faoliyatidagi ahamiyatini tahlil qilish;
- bank risklarini boshqarish bo'yicha xalqaro talablarni tadqiq qilish;
- bank risklarini boshqarish usullari va banklar tomonidan risklarni baholash mezonlarini tadqiq qilish;
- bank risklarini boshqarish bo'yicha amaliyotni tahlil qilish;
- bank risklarini boshqarish bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni asoslash;
- bank faoliyatida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalariga nisbatan xulosa va takliflar berish hamda istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyani yozish davomida guruhlashtirish, tasviriy statistika, tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar bank risklarini boshqarishning ilg'or tajribalarini O'zbekiston sharoitida joriy etish yo'llarini ishlab chiqish, O'zbekiston banklarida risklarni boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish, tijorat banklarining kredit portfeli va ularda tarkibiy risk omillarini tizimlashtirish asosida tahlil etish, samarali boshqarishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan bank risklarini baholash va ularni samarali boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish bilan izohlanadi.

Ish tuzilishi va tarkibi: Kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Mavzu doirasida 2 ta tezis va 1 ta maqola respublika miqyosidagi jurnal va ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlarida chop etildi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi: Tadqiqot natijalari ilmiy va amaliy jihatdan umumlashtirilib, bank risklarini baholash va boshqarishni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

ANNOTATION

Tashkent State University of Economics, Faculty of Master's and Evening Studies 70410501 – "Banking and Auditing" specialty, Master's thesis of 2nd year master's student Khakimova Nargiza Abdukarimovna on the topic "Ways to improve the assessment and management of bank risks"

Relevance of the topic. The current socio-economic processes taking place in the world, the globalization of the world economy, as well as the intensification of competition in international and local markets, demonstrate the urgency of improving the mechanisms used to assess and manage risks in commercial banks. In particular, in accordance with the "Uzbekistan - 2030" strategy of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023, the issues of reforming the banking sector are of great importance in order to achieve stable economic growth.

Goals and objectives of the thesis. The purpose of the master's thesis is to develop proposals and recommendations for improving the assessment and management of banking risks in Uzbekistan.

The tasks consist of those in which:

- to reveal the essence, classification, types and specific features of banking risks;
- to analyze the importance of banking risks in banking activities;
- to study international requirements for banking risk management;
- to study methods of banking risk management and criteria for assessing risks by banks;
- to analyze the practice of banking risk management;
- identify emerging problems in bank risk management and justify them;
- provide conclusions and proposals on issues of improving the risk management system in banking activities, as well as identify prospects.

Description of the methodology used in the study: During the writing of the dissertation, the following methods were used: clustering, descriptive statistics, systematic analysis, economic-statistical analysis, statistical grouping of data, comparative and dynamic analysis.

Theoretical and practical significance of research results. The theoretical significance of the research results is explained by the fact that the developed proposals serve to develop ways to introduce advanced practices of bank risk management in the conditions of Uzbekistan, analyze the current state of risk management in Uzbek banks, analyze the credit portfolio of commercial banks and their structural risk factors based on systematization, and conduct scientific research on effective management.

The practical significance of the research results is explained by the use of the developed recommendations in assessing bank risks and developing a strategy for their effective management.

The structure and composition of the work: It consists of an introduction, three chapters, a conclusion and recommendations, and a list of references.

The main results of the work performed Within the framework of the topic, 2 theses and 1 article were published in national journals and proceedings of scientific and practical conferences.

A brief summary of the conclusions and proposals: The research results are summarized scientifically and practically, and suggestions and recommendations are presented for improving the assessment and management of banking risks.

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BOB BANK RISKLARI VA ULARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....9

1.1 Bank risklarining bank faoliyatidagi ahamiyati.....9

1.2 Bank risklarining turlari va xususiyatlari.....16

1.3 Bank risklarini boshqarish va uning nazariy asoslari.....25

I bob bo'yicha xulosalar.....32

II BOB TIJORAT BANKLARIDA BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING JORIY HOLATI.....34

2.1 Tijorat banklari risklarini boshqarish usullari va mezonlari.....34

2.2 Tijorat banklari faoliyatidagi tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha xalqaro talablar.....40

2.3 "Davr Bank" XATB da risklarni boshqarish va ular holatining tahlili.....49

II bob bo'yicha xulosalar.....58

III BOB BANK RISKLARINI BOSHQARISH BILAN BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI.....60

3.1 Tijorat banklari faoliyatida mavjud risklarni minimallashtirish.....60

3.2 Mamlakatimiz tijorat banklari rivojlanishida bank risklarini samarali boshqarish tizimini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbollari.....65

III bob bo'yicha xulosalar.....71

XULOSA VA TAKLIFLAR.....73

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....79

Kirish.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Ma'lumki, hozirgi davrda dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, shuningdek, xalqaro va mahalliy bozorlarda raqobatning keskinlashuvi sharoitida tijorat banklarida risklarni baholash va boshqarishda qo'llaniladigan mexanizmlarni takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatmoqda. Respublikamizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tijorat banklari oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqda. Ayni paytda, banklarda risklarni boshqarishni samarali tashkil etish va bank tizimini barqarorligini oshirish va unga nisbatan aholi ishonchini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ham bank tizimini yanada isloh qilishda risklarni boshqarishni takomillashtirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida bank sohasini isloh qilish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilandi[1]. Respublikamizda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasini oshirish, mamlakatimiz moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq banklarda risk-boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida qator ustuvor yo'nalishlar ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" - milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, valyuta siyosatini liberallashtirish kabi yo'nalishlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda bazaviy asos

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi PF-158-son Farmoni.2023-yil 11-sentyabr.